



ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA AYOL KAYFIYATI: FERUZA XAYRULLAYEVA SHE'RLARI XUSUSIDA

Asqaraliyeva Nigora Oybek qizi

ToshDO'TAU OTAT 3-kurs talabasi nigoraasqaraliyeva@gmail.com

+998977330830

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8180911>

ARTICLE INFO

Received: 15th July 2023

Accepted: 23th July 2023

Online: 24th July 2023

KEY WORDS

Ijodkor kayfiyati, ramz masalasi, ayol obrazi, "Izlam" to'plami, yangi avlod.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi davr she'riyatining ko'zga ko'ringan shoiralaridan biri Feruza Xayrullayevaning "Izlam" to'plami doirasida chiqqan "Tutqun" kitobidagi she'rlari tahlilga tortildi. She'rlardagi ramz, ijodkor kayfiyati, tabiat lirikasi bilan bog'liq masalalar ochib berilishga harakat qilindi.

2000-yillarning boshlarida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh "istiqlol she'riyati" va "she'riy istiqol" tushunchalariga izoh berib o'tadi [Qozoqboy Yo'ldosh, 102]. "Guliston" jurnalida e'lon qilingan ushbu maqolada olim yosh shoiralardan Farida Afro'z, Zebo Mirzo, Sanobar Rahmon, Benazir kabi ijodkorlarni tilga olarkan, lekin bugungi kunga kelib bu nozik qalam egalaridan faqat ikki nafariningina ijodda qoyim ekanliklarining guvohi bo'lamiz. Har qaysi adabiyotda ayol ijodkorlar ham kam uchrashi, ham o'zgacha ruhiyati bilan ajralib turadi. Xususan, o'zbek adabiyotida ham shunday. Ayniqsa, Sharqda mashhur bo'lgan Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshod Barnolarning bugungi kun davomchilari talaygina, XX asr o'zbek shoiralaridan Zulfiya, Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Zulfiya Mo'minova, Halima Ahmad kabi ijodkorlarni sanash kerak bo'lsa, ayni paytda Guljamol Asqarova, Nodira Afoqova, Go'zal Begim, Gulnoz Mo'minova, Oydinniso, Nargiza Odiyeva kabi deyarli tengdosh shoiralarni ham ko'rish mumkin. 2022-yilda keng kitobxonlar e'tiboriga havola etilgan "Izlam" to'plamidan ham shoiralarning dadil joy olgani kishini quvontiradi. Shoir va yozuvchi Tillanisoning "Qon", Madina Norhayevaning "Qumar", Feruza Xayrullayevaning "Tutqun" kitoblari ularning birinchi kitoblaridan keyingi adabiyotga qo'yilgan navbatdagi qadamlaridan biri bo'ldi. Ayniqsa, ushbu ijodkorlarning asarlari ko'plab muhokama va tortishuvlarga sabab bo'lgani ko'plab kitobxonlarning yanada qiziqishlariga sabab bo'ldi. Ushbu maqolada esa "Tutqun"dagi she'rlarni tahlil qilishga harakat qildik. "Akademnashr" tomonidan nashr etilgan "Izlam" turkumidagi kitoblar mualliflari adabiyotda "yangi avlod" sifatida ta'riflanayapti. Ammo avlod sifatida shakllanishi uchun hali vaqt kerak. Turkum o'z nomi bilan "Izlam" – unda o'z yo'lini, o'zini izlayotgan yosh ijodkorlar jamlangan. Feruza Xayrullayeva she'rlari baxt va baxtsizlikning inja ifodasi, sog'inchning umidli-umidsiz onlari, inson yuragidagi kemptiklikning hech tuzalmas og'riqlari haqida... Og'riqki, undan xalos bo'lish yo'lini axtarmaydi, balki uning go'zal suvratini chizadi. "Izlam" to'plamidagi



ijodkorlarning she'rlaridagi tabiat lirikasi o'xshash. Ya'ni har bir shoirda yomg'ir istilohi faol qo'llanilgan. Xususan, Feruza Xayrullayeva ham.

"Aya, yig'layotgan yomg'irni eshityapsizmi?

Shamollar aytdimi sizga ham dardin?" [Feruza Xayrullayeva, 4].

Yomg'irlar endi hazin jilmayar

Ko'zingni eslab yig'laganimda... [Feruza Xayrullayeva, 6].

Ko'chalarda esa kezib yuribdi

Yomg'irda ivigan egasiz baxtlar. [Feruza Xayrullayeva, 7].

Bugungi dunyo san'atining asosiy og'riqlaridan biri bu – shaxsning yemirilishi, yolg'izlanishi, mavjud universal xulosalardan o'zligini topolmagan individning mavjudlikka o'zi javob izlashi. Uning muhit bilan, qarshisidagi voqelik bilan til topisha olmasligi, voqelik oldida o'zining ojizligini his qilishi, unga o'zini begona va omonat sezishi (Nazar Eshonqul). "Izlam" to'plami chiqqandan keyin yozuvchi Nazar Eshonqul munosabati ham Oyina.uz da e'lon qilindi. Yuqoridagi fikrlari ham bugungi davr adabiyotining sifatlaridan biri. Adabiyot – doimiy yangilanish, o'zgarish xususiyatiga ega jarayon. Hatto mustaqillik davri adabiyoti bilan hozirgi adabiyotning o'rtasida yer bilan osmonchalik farq bor. Hislar, qarashlar, muhit o'zgarishiga uchragan. Buni adabiyotshunoslik xoh modernizm, xoh postmodernizm deb ataydi. "Tutqun" dagi she'rlarda ham shaxsning yemirilishi, o'z "men"iga qaytish jarayonini uchratishimiz mumkin. She'rlarni o'qirkansiz, ichingizdagi dard gullab ketadi. She'rlardagi shoironing Yaratgan bilan suhbatida esa nisbatan eng yorug' o'rinlardir.

Yig'lab bordim Xudoga tomon

Ko'zlarimdan to'kildi gunoh! [Feruza Xayrullayeva, 7].

O, meni dunyoga tutashtir, Tangrim,

Yuragim ummonga aylanib ketsin. [Feruza Xayrullayeva, 9].

Sadoqat eslanmas, oqibat unut,

Olamga odamni qaytargin, Xudo! [Feruza Xayrullayeva, 25].

Xudoga maktub yozdim,

Unda bir sen bor eding... [Feruza Xayrullayeva, 86].

Seni uchratganiga.

Sezdim – jilmaydi Xudo. [Feruza Xayrullayeva, 86].

"Tutqun" to'plamdagi hajman eng kichik kitoblardan biridir. She'rlarni ketma-ket o'qib borgan kitobxon xayolida bir savol tinimsiz aylanishi mumkin: "Shoira she'rlaridagi mung nega bu qadar ko'p, nima uchun bunchalik qayg'uni "yaxshi ko'radi?". Ba'zan she'rlarni ketma-ket o'qib o'quvchining o'zi ham "yig'loqi" kayfiyatga tushib qolishi mumkin. Bundan ham ko'rinib turadiki, adabiyot endi faqat yorug'lik, yaxshilik bilan tugaydigan hikoya-yu ertaklardan iborat emas, adabiyot bir tizimga solingan, bir xil qofiyali she'rlar emas. Ba'zida insonga qorong'ilikni ko'rsatib ham yorug'likning qadrini bildirish mumkin.



Go'zallashib borar savollar

Go'zallashib ketganda hasrat. [Feruza Xayrullayeva, 22].

Kitobning nomlanishi ham alohida diqqat tortadi. Xo'sh, shoira yoki she'rlar nimaga tutqun? Jamiyatgami, orzularigami, armonlarigami... Yuqoridagi ehtimollarning har birini she'rlardan topish mumkin-u, lekin haqiqat shuki – shoira o'z ko'ngliga, hissiyotlariga tutqun.

Men esa hamon xona ichida.

Men esa hamon xona ichida

Qamalib boraman ko'nglimga tomon. [Feruza Xayrullayeva, 23].

Kitobdan olamshumul yangilik, bejirim tashbehlar qidirmang, shunchaki shoira og'riqlarining go'zal yetkazib berilganiga, sizni ham sherik qilganiga hayron qolasiz. Shoira ichidagi og'riqlarini, xotiralarini yashirmaydi, "qog'ozga o'rab" so'zlamaydi. She'rlardagi ochiqlik, avtobiografik kayfiyat shoirani yanada tanishga yordam beradi.

Xabarga aylanib qolgandek dunyo,

Bilsam-da hammadan mehribon Xudo.

Erkalik qilishni istayman hozir –

Sukutga to'ldirma umrimni

Sukutga to'ldirma umrimni

Sukutga to'ldirma umrimni! [Feruza Xayrullayeva, 92].

Feruza Xayrullayeva she'rlarni o'qib chiqqan o'qirman ajib hislar, tanish og'riqlarni tuyadi, qaysidir ma'noda daqqiyunusdan qolgan dardlar, xotiralar girdobiga tushadi. O'zbek adabiyotidagi ayol ijodkorlarga ijodiga xos bo'lgan nafislik bilan bir qatorda, endi bu shoiraning she'rlarida qandaydir ichki isyon, atrofdagilardan qochib, o'z "men"iga bekinish hissi bor. Va bu xususiyatlar hozirda yosh ijodkorlarning yozganlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Tutqun" dagi she'rlarning e'tiborga molik jihati shundaki, unda shoiraning falsafiy qarashlari ham o'rin olgan. Ya'ni his-tuyg'u, tabiat lirikasi, tushkun ruh bilan birgalikda falsafaning ham berilgani, berilganda ham o'zgacha tashbehlar bilan kelgani diqqatingizni tortadi.

Brodvey. Bunda san'at topilar,

Bunda san'at sotilar.

Ba'zan odamlar ehson qilib o'tishar

Didlari kabi mayda chaqalarini [Feruza Xayrullayeva, 82].

"Yolg'on so'zlash ham san'at"

San'atkorlar ko'paygan,

Qizig'i,

Muxlisi ham ko'p uning. [Feruza Xayrullayeva, 77].

Biroq

borgim kelmaydi

qishloqqa sira.

Borsam yig'latar

O'z bo'yidan oshmagan qirlar! [Feruza Xayrullayeva, 20].



Adabiyot – ko'ngil ishi. Deyishadiki, she'r uni yozganga emas, unga ehtiyoji bo'lganga oiddir. Ammo ba'zi tanqidchilar tomonidan ijodkorlarga taqiq qo'yiladi. Ya'ni ijodkor buni yozmasligi kerak, shoir bunday bo'lmasligi kerak kabi. Fikrimcha, shoirni ham avvalo inson sifatida qabul qilish kerak. Uning yozadigan she'rlari xoh adabiy qoidalarga bo'ysungan bo'lsin, xoh mentalitetga zid bo'lsin, ijodining yashab qolishi biz kitobxonlarga, xalqqa bog'liqdir. "Istagan ijodkor istagan yo'sinda, xohlagan yo'nalishda qalam surishga haqli. Va buning uchun u hech kimdan ruxsat so'rab, xayrixohlik kutib o'tirmaydi. Faqat u o'z qarashlarini asoslaydigan dalillar tizimiga ega bo'lsa bas. Xohlasangiz unga qo'shiling, xohlamasangiz ixtiyor o'zingizda. Ammo sizga ma'qul kelmaydigan yo'sinda fikrlagani uchun kishini nigilizm yoki "ma'naviyatsizlik"da ayblashni uzoq bo'lmagan o'tmishimizdagi bir-biridan "xalq dushmanlari"ni izlash illatidan tuzukroq deb bo'lmaydi. Birovga bunday ayb qo'yishning o'zi eng katta ayb. Ijodkor vijdonidan o'zga hech kimning oldida burchli emas. Nimani, qanday, qay shaklda, qachon yozish uning shaxsiy ishi. Shukurki, biror narsani yozgani uchun qamalib, yozmagani uchun sabotajda ayblanadigan zamonlar o'tib ketdi. Ijodkor – o'z qalbining xoqoni" [Қозоқбой Ёўлдошев, 141].

Shunday ekan, shoira she'rlarida tushkun kayfiyat, ochiq armon, umidsiz-u, lekin ilinji bor ayol obrazi, tabiat ramzlari, o'ziga xos falsafa bor. Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshevning fikrlariga qo'shilgan holda ijodkorni mavzu doirasida, uslub doirasida cheklamaslik tarafdoriman. To'g'ri, "Izlam" adabiyot uchun yangi tajriba olib kira oldi, uning doirasidagi ijodkorlar ham yelkalariga katta mas'uliyat yuklashdi. Lekin bugungi kun adabiyoti uchun hissa qo'shishga harakat qilayotgan yoshlarning qalamni sindirish emas, o'tkirlash lozim. Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, "Haqiqiy tandiqchi ijod bog'iga bolta bilan emas, tokqaychi bilan kirishi kerak" [O'tkir Hoshimov, 201].

References:

1. Daftar hoshiyasidagi bitiklar: hikoya / O'. Hoshimov – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 296 b.
2. Tutqun / F. Xayrullayeva. – Toshkent. "Akademnashr", 2022. – 96 b.
3. Қозоқбой Ёўлдошев «Ёниқ сўз». «Янги аср авлоди», 2006 йил.
4. <https://oyina.uz/kiril/article/1238>